

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

YUSUFXONOV ZOKIRXON YUSUFXON O‘G‘LI

**AVTOMOBIL TRANSPORTIDA KONTEYNER TASHISHNI LOGISTIKA
TAMOYILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK: 656.073.235

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Yusufxonov Zokirxon Yusufxon o'g'li

Avtomobil transportida konteyner tashishni logistika tamoyillari asosida takomillashtirish 3

Юсуфхонов Зокирхон Юсуфхон угли

Совершенствование контейнерных перевозок на автомобильном транспорте на основе принципов логистики..... 25

Yusufkhonov Zokirkhon Yusufkhon ugli

Improving container transportation by road transport based on logistics principles 49

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

YUSUFXONOV ZOKIRXON YUSUFXON O‘G‘LI

**AVTOMOBIL TRANSPORTIDA KONTEYNER TASHISHNI LOGISTIKA
TAMOYILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5159 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tashiit.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Samatov G'affor Allokulvich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xalmuxamedov Aziz Suratovich texnika fanlari doktori, dotsent
	Ilesaliyev Dauren Ixtiyarovich texnika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs. 15/31.08.2022.T.73.03 raqamli ilmiy kengashning 2025 – yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100208, Toshkent sh, Temirchi ko'chasi, 57-uy, Tel.: (99871)294-77-38; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100208, Toshkent sh, Temirchi ko'chasi, 57-uy, Tel.: (99871)294-77-38, faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 – yil “___” _____ da tarqatildi.
(2025 – yil “___” _____ dagi ___ -raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Riskulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

K.Z. Ziyayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, PhD., dotsent

A.A. Muxitdinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiyot tarmoqlarining transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini sifatli qondirishda avtotransportda yuk tashish tizimini takomillashtirish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda logistlar va ekspeditorlarning asosiy vazifasi mavjud transport infratuzilmasidan to'laqonli foydalanish, undan maksimal darajada tashish imkoniyatlari bilan yuk oqimlarini marshrutlashtirish ko'rsatgichlarini yaxshilashga qaratilgan masalalar yetakchi o'rinni egallagan. Bu borada, jumladan transport tizimining tarkibiy elementlaridan to'laqonli foydalanish, yuklarni konteynerlarda samarali yetkazib berish, intermodal va multimodal tashishlarni jadal rivojlantirish, transport vositalarini oqilona marshrutlashtirish, avtomobil transportining ish unumdorligini oshirish, tashuvlarda konteyner texnikalaridan foydalanishda terminallarning zarur bo'lgan imkoniyatlariga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda rivojlangan mamlakatlarning yetakchi konteyner tashuvchi kompaniyalari yuklarni konteynerlardan foydalanib tashishning kamxarj, optimal va samarali marshrut tarmoqlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, logistika ta'minot zanjirida avtomobil transportida yuk konteynerlarini yetkazib berishda bo'sh yurish masofalarini kamaytirish, tashish yo'nalishlarini ratsionallashtirish, konteyner yetkazib berish barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, terminal tashuvlar texnologiyalarini rivojlantirish, yuk oqimlarining o'zgaruvchan xususiyatlariga ko'ra transport tarmog'ini rivojlantirish, transport xizmatini ko'rsatish jarayonlari va ularni boshqarish modellarini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, avtomobil transportida konteyner oqimlarini transport tarmoqlarida optimal taqsimlash kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda oxirgi yillarda transport logistikasini isloh qilish, xususan, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy etish, transport turlari kesimida yuk tashish tizimini takomillashtirish, tashuvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, transport logistikasi sohasiga investitsiyalarni jalb etish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, avtotransportda tashish faoliyatini olib boruvchilarni zamonaviy tashish usullari va texnologiyalari bilan ta'minlash bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni, transport turlarida yuk tashish xarajatlarini kamaytirish va konteyner tashishni rivojlantirishga qaratilgan, sohadagi olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni rag'batlantiruvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi yaqqol ko'rsatib turibdi. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida amalga oshirishga oid davlat dasturida "...yuk tashish xarajatlarini 30 foizgacha kamaytirish", "... transport turlarida konteyner tashishlar ulushini kamida 2 barobarga oshirish"¹ bo'yicha vazifalari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

alohida belgilab berilgan. Mazkur belgilangan vazifani bajarishda Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish vazifalaridan kelib chiqib, mamlakatimizda konteynerlarni logistika tamoyillari asosida avtomobil transportida yetkazib berishda iqtisodiy, texnik va tashkiliy uslublarni takomillashtirish bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5647 sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi “Avtomobil transporti tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3589 sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-28 sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 213-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining III. “Energetika, energiya-resurs tejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlar tomonidan transport turlarida konteyner tashishning har xil parametrlarini tanlash va samaradorligini hisoblash bilan M. Malkolm, A.V. Rijkenov, D. Steenken., S. Vob., R. Stahlbock., K.I. Manayev, Olga Lingaitienè, Yujie Hu, Lili Dong, Gouhui Liu, Xin Ye, Wei Wang, E. Chebotareva, I. Solopa, P. Kurenkov, A. Astafev, A. Egorov, N. Pilipchuk, I. Khmelev, V. Shatokhin, A. Kovkin, V.V. Aidas, B. Jurgita va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimiz olimlari A.A. Eshmatov, E.R. Umarova, B.A. Xo‘jayev, Sh.A. Butayev, G.A. Samatov, A.A. Shermuxamedov, A.A. Nazarov, S.A. Yuldasheva, D.I. Ilesaliyev, A.A. Kuziyev, M.N. Jurayev, R.G. Samatov, A.F. Ismatullayev va boshqalar o‘rgangan.

Hozirgi vaqtda transport tarmoqlari hamda avtomobil transporti faoliyatini takomillashtirish va tashish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar natijalarini ilmiy yangilik sifatida e‘tirof etish mumkin. Ammo avtomobil transportida konteynerlarni terminaldan iste‘molchilarga va aksincha yo‘nalishlarda bo‘sh yurish masofasini kamaytirish uchun ratsional marshrutlar bo‘yicha avtomobillarni optimal taqsimlash usuli ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti TDTr universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-5321091554 - sonli “Intermodal tashishlarda yuklarni kengaytirilgan nomenklaturada tashish muammosini innovatsion konteynerlar-platforma yaratish hamda yangicha texnik va texnologik yechim orqali hal etish” mavzusidagi (2022-y.) grant loyihasi, “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning

2024-yil 8- avgustdagi №674/1 sonli xati hamda “Avtomobil transportida konteyner tashishni logistika tamoyillari asosida takomillashtirish” mavzusidagi 2024-yil 29-noyabrdagi 272-sonli xo‘jalik shartnomasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi avtomobil transportida konteyner tashishni logistika tamoyillari asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

avtomobil transportida konteyner tashuvlar va logistika ta‘minot zanjirida yuk tashish faoliyatini statistik-analitik tahlil qilish;

logistika ta‘minot zanjirida avtomobil transportida konteynerli yuklar oqimining o‘zgarishini bashorat qilish modelini ishlab chiqish;

avtomobil transportida konteyner tashishga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning muhimlik darajasini baholash usulini takomillashtirish;

avtomobil transporti masofadan foydalanish koeffitsiyentini oshirish uchun avtomobil transportida konteyner tashishni marshrutlashtirish modelini takomillashtirish;

terminallardan mijozlarga konteynerlarni avtomobil transporti orqali yetkazib berishda ushlanib qolish vaqtlarni eksperimental tadqiq etish va o‘zgarish qonuniyatini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida “BK Intrans” XK va “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ tasarrufidagi avtomobil transportlarida konteyner tashuvlar olingan.

Tadqiqotning predmetini avtomobil transportining masofadan foydalanish koeffitsiyenti qiymatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tadqiqot usullari, kuzatuv, tizimli tahlil, vaqtli qatorlar, analitik iyerarxik jarayon (AHP) yondashuvi va Entropiya qiymat usuli, optimallashtirish, ehtimollar nazariyasi, qiyosiy tahlil, matematik statistika, potentsiallar va simulyatsiyalash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

analitik vaqt ketma-ketligi tendensiyalarini inobatga olgan holda, logistika ta‘minot zanjirida avtomobil transportida konteynerli yuklar oqimining o‘zgarishini bashorat qilish modeli eng kichik kvadratlar usuli yordamida ishlab chiqilgan;

avtomobil transportida konteyner tashishga ta‘sir etuvchi asosiy omillarining muhimlik darajalarini baholash usuli, ratsional tashish parametrlarini inobatga olgan holda, analitik iyerarxiya jarayon va Entropiya qiymatlari yordamida takomillashtirilgan;

avtomobil transportida konteyner tashishni marshrutlashtirish modeli yuksiz qatnov masofalarini qisqartirish sharti asosida, chiziqli dasturlash amallarining potentsiallar usuli yordamida takomillashtirilgan;

ushlanib qolish vaqtlari va marshrut masofasini inobatga olgan holda terminallardan iste‘molchilarga konteynerlarni yetkazib berish vaqtlarining o‘zgarish qonuniyati, eksponensial taqsimlanish ko‘rsatkichlari yordamida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konteynerlarni avtomobil transportida iste‘molchilarni qanoatlantiradigan miqdor va narxlar asosida buyurtmalarni yetkazib berish modeli takomillashtirildi;

konteynerli yuklarni iste'molchilarga ratsional marshrutlarda yetkazib berish algoritmi asosida avtomobil transportining yo'ldan foydalanish koeffitsiyenti oshirildi va mazkur masalani yechish uchun dasturiy ta'minot yaratildi;

logistika tamoyillari asosida ratsional marshrutlar ishlab chiqish orqali, terminallardan mijozlarga avtomobil transportida konteyner yetkazib berishni eksperimental tadqiqotlar o'tkazish uslubi va dasturi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi avtomobil transportida konteyner tashish uchun ishlab chiqilgan matematik modelining to'g'riligi, olingan nazariy natijalar va eksperimental kuzatuv ma'lumotlarining yuqori darajada yaqinlashishi, shuningdek sinovdan o'tkazilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, konteynerlarni tashishda marshrutlar tizimida avtomobil transport vositalaridan samarali foydalanish masalasi yechimlari matematik modeli va usullarining asoslanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati konteyner terminallardan iste'molchilarga tashish jarayonlarida avtomobil transporti vositalaridan samarali foydalanish orqali, konteynerlarni tashish hajmiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Avtomobil transportida konteyner tashishni logistika tamoyillari asosida takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

logistika ta'minot zanjirida avtomobil transportida konteynerli yuklar oqimining o'zgarishini bashorat qilish modeli "O'ztemiryo'lkonteynet" AJ da joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 3 – yanvardagi 4E3-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 2025-2030 yillar davomida konteyner oqimini oshishi bashorat qilinib, kerakli avtomobil transport vositalari sonini aniqlash imkoni yaratilgan;

avtomobil transportida konteyner tashishga ta'sir etuvchi asosiy omillarining muhimlik darajalarini baholash usuli "BK Intrans" XK da joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 3-yanvardagi 4E3-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, avtomobil transportlarida konteyner tashishga kuchli ta'sir etuvchi ratsional tashish mezonlari sifatida tashish ta'rifi, marshrut masofasi va yetkazib berish vaqti qiymatlari belgilangan;

avtomobil transportida konteyner tashishni marshrutlashtirish modeli "BK Intrans" XK da joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 3-yanvardagi 4E3-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, konteyner tashishda avtomobil transportlarining transport ishi 24 foizga kamayishiga va masofadan foydalanish koeffitsiyentini ratsionallashtirish tamoyili orqali 52 foiz oshishiga erishilgan;

terminallardan iste'molchilarga konteynerlarni yetkazib berish vaqtlarining o'zgarish qonuniyati "O'ztemiryo'lkonteyner" AJ da joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 3-yanvardagi 4E3-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, konteynerlarni yetkazib berishda avtomobil transportlarining turib qolish vaqtlarini kamaytirish bo'yicha rejalashtirilgan tadbirlarni o'z vaqtida va asosli tarzda ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shu bilan birga, dissertatsiya ishi bo'yicha 1 ta EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazasiga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Avtomobil transportida konteynerlarni tashish jarayonini tashkil qilishning hozirgi holati”** deb nomlangan birinchi bobida xalqaro konteyner yetkazib berishni rivojlantirish muammolari va tendensiyalari, O'zbekistonda avtomobil transporti orqali konteyner tashishning o'ziga xos xususiyatlari va konteyner oqimining o'zgarish ifodasi hamda mahalliy va xorijiy ilmiy ishlar tahlillari keltirilgan.

Transport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, konteyner tashishni modernizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyati, yuk jo'natuvchilar tomonidan tovarlarni yetkazib berishning butun yo'nalishi bo'ylab tobora takomillashtirilgan transport xizmatlarini taklif qilishdir.

Global konteyner tashish tizimining faol rivojlanishi XX asrning 50-yillaridan boshlanib, hozirgi vaqtgacha davom etib kelmoqda. Dastlabki yillarda jahon konteyner parkining hajmi qariyb 1 million dona 20 futlik konteynerlar mavjud bo'lgan, hozirgi vaqtga kelib, barcha turdagi transport vositalarida tashish 170 million 20 futlik ekvivalent birlik (TEU) dan oshiqroq konteynerga yetdi. Tashish esa, 2021-yildan buyon eng yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lib, 7,2 foizni tashkil etdi. Bunga turli ijobiy tendensiyalar sabab bo'ldi va 2024-yilda konteyner orqali tashilgan yuk aylanmasi 166,2 mln TEU ga yetdi. Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish bo'limi (UNCTAD) prognozlariga ko'ra, 2025-yilda xalqaro konteyner savdosi 1,3 foizga o'sadi va makroiqtisodiy muammolar yengillashgani sabab bo'ladi.


O'zbekistonda yuk yoki konteyner tashishning muammo va kamchiliklaridan biri bu mamlakatning geografik holati sababli dengiz va daryo transportidan foydalanish imkoniyatining deyarli mavjud emasligi hisoblanadi. Konteynerlarni

ushbu transport vositasi yordamida yetkazish uchun O‘zbekiston kamida 2 ta davlat hududidan o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa, avtomobil transportlari orqali xalqaro va ichki yo‘nalishlarda yuk yoki konteyner tashishdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yechimlarini talab etadi.




1 – rasm. Avtomobil transportida konteyner tashishni tashkil etishdagi muammolar

Dissertatsiya ishida Pareto diagrammasi asosida konteyner yuklarini yetkazib berish zanjirlarida ishtirok etuvchi eng muhim hududlar va konteyner terminallarini nazarda tutuvchi grafiklar tuzilgan (2 va 3-rasmlar).



2-rasm. 2023-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha avtomobil transportida tashilgan yuk hajmlarini ifodalovchi Pareto diagrammasi


2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, hududlar bo‘yicha avtomobil transportlarida tashilgan yuk hajmining 80 foizi va 7 ta viloyatda tashilgan, ya’ni 50 foiz hududning ulushi tashishning 80 foizni tashkil etadi.



3-rasm. 2024-yil yanvar-dekabr oylari uchun logistika markazi va terminallarida konteyner aylanmasini ifodalovchi Pareto diagrammasi

3-rasmda terminallar yoki logistika markazlari orqali tashilgan konteyner miqdorining 80 foizi va 12 ta terminalda tashilganligini ko‘rish mumkin.

Mamlakatda konteynerli yuklar tashuvlari tashilgan umumiy hajmining 2,1 foizni tashkil qiladi va so‘nggi to‘rt yilda bu ulush o‘sib bormoqda.



4-rasm. Avtomobil transportida konteynerli tashuvlar dinamikasi (2015-2024 yillar, TEU birlikda)

Avtomobil transportida tashilgan konteynerlar soni 2019-yil oxirigacha oshgan bo‘lib, 7087 taga yetdi, lekin 2020-yildagi pandemiya sababli keskin kamayib, 1829 tani tashkil etdi. So‘ngra, 2021-2024 yillarda keskin ko‘tarilib, umumiy tashilgan konteynerlar 9075 tadan 18214 taga yoki 201 foizga oshgan (4-rasm).

Iqtisodiy statistikada aniqlash va analitik vaqt ketma-ketligi tendensiyasining ifodasi ko‘pincha quyidagi funksiyalardan foydalaniladi:

– birinchi darajali (chiziqli funksiya)

$$y_i = a_0 + a_1 t \quad (1)$$

– ikkinchi darajali (parabola)

$$y_t = a_0 + a_1 t + a_2 t^2 \quad (2)$$

Noma'lum parametrlarni aniqlash uchun normal tenglamalar tizimi a_3, a_1 va a_2 quyidagicha yoziladi:

$$\begin{cases} Na_0 + a_1 \sum t + a_2 \sum t^2 = \sum y; \\ a_0 \sum t + a_1 \sum t^2 + a_2 \sum t^3 = \sum yt; \\ a_0 \sum t^2 + a_1 \sum t^3 + a_2 \sum t^4 = \sum yt^2. \end{cases} \quad (3)$$

Agar t ning toq darajalar yig'indisi nolga teng bo'lsa, butun tizimni soddalashtirish mumkin:

$$\begin{cases} Na_0 + a_2 \sum t^2 = \sum y; \\ a_1 \sum t^2 = \sum yt; \\ a_0 \sum t^2 + a_2 \sum t^4 = \sum yt^2. \end{cases} \quad (4)$$

Parametrlarni silliqlashdan foydalanib, ba'zi avtomobil transportlarida tashilgan konteyner hajmlarini bashorat qilishda, ularning dastlabki vaqt qatori taxminan ikkinchi darajali parabola bilan tavsiflanadi. Konteyner oqimi o'zgarish ifodasini aniqlash uchun dastlabki va hisoblangan qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Konteyner tashish hajmining vaqtli qatorlar usulida aniqlanishi

Hisobot davri, yillar	Tashish xajmi, kont. y_t	t	t^2	t^4	yt	yt^2	\hat{y}_t
1	2	3	4	5	6	7	8
2015	4428	-9	81	6561	-39852	358668	5323,6
2016	4837	-7	49	2401	-33859	237013	4490,2
2017	5143	-5	25	625	-25715	128575	4252,3
2018	5847	-3	9	81	-17541	52623	4609,9
2019	7087	-1	1	1	-7087	7087	5563,1
2020	1829	1	1	1	1829	1829	7111,7
2021	9075	3	9	81	27225	81675	9255,9
2022	14271	5	25	625	71355	356775	11995,6
2023	16464	7	49	2401	115248	806736	15330,8
2024	18214	9	81	6561	163926	1475334	19261,6
Jami:	87195	0	330	19338	255529	3506315	87194,6

1-jadvalning 8-ustunida tekislangan darajalar keltirilgan.

Parametrlarning hisoblangan qiymatlarini jadvaldan tenglamalar tizimiga kiritish orqali biz quyidagi tenglamalar tizimini olamiz.

$$\begin{cases} 10a_0 + 330a_2 = 87195 \\ 330a_1 = 255529 \\ 330a_0 + 19338a_2 = 3506315 \end{cases}$$

Parametrlar hisoblanadi (birinchi tenglamani mos ravishda 33 ga ko'paytiriladi):

$$a_2 = \frac{628880}{8448} = 74,44$$

$$a_1 = \frac{255529}{330} = 774,33$$

$$a_0 = \frac{87195 - 330 \cdot 74,44}{10} = 6262,94$$

Shuning uchun,

$$\hat{y}_t = 6262,94 + 774,33t + 74,44t^2 \quad (5)$$

1-jadval asosida hisoblangan birinchi darajali tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$\hat{y}_t = 8719,5 + 277,585t \quad (6)$$

Yuqoridagi usullarni qo'llash bo'yicha ba'zi umumiy xulosalar chiqarish mumkin. Vaqt qatolarini eng kichik kvadratlar usuli yordamida tekislash orqali ekstrapolyatsiya qilishdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak va agar rivojlanish tendensiyasini ifodalovchi yaqinlashuvchi funksiya noto'g'ri tanlangan bo'lsa, prognoz natijalari noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Amalda parametrlari eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlanadigan tendensiya funksiyasi turini tanlash ko'p hollarda empirik tarzda, bir qator funksiyalarni qurish va ularni bir-biri bilan quyidagi mezonlar orqali taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi (2-jadval).

(5) va (6) funksiyalarning parametrlarini hisoblash eng kichik kvadratlar usuli bilan amalga oshiriladi, uning asosiy talabi empirik qiymatlardan hisoblangan qiymatlarning kvadratik og'ishlarining minimal yig'indisidir. Kerakli hisob-kitoblarni amalga oshirib, biz quyidagi tenglamalarni olamiz:

2-jadval

Model parametrlarini aniqlash

Hisobot davri, yil	$\hat{y}_t = 8719,5 + 277,585t$		$\hat{y}_t = 6262,94 + 774,33t + 74,44t^2$	
	$y_t - \hat{y}_t$	$(y_t - \hat{y}_t)^2$	$y_t - \hat{y}_t$	$(y_t - \hat{y}_t)^2$
1	2	3	4	5
2015	-1793,2	3215691,8	-895,6	802117,3
2016	-1939,4	3761291,8	346,8	120277,2
2017	-2188,6	4789860,5	890,7	793364,3
2018	-2039,7	4160559,7	1237,1	1530391,7
2019	-1354,9	1835794,7	1524,0	2322423,6
2020	-7168,1	51381442,6	-5282,7	27907024,9
2021	-477,3	227772,3	-180,9	32721,2
2022	4163,6	17335356,8	2275,4	5177490,7
2023	5801,4	33656300,0	1133,2	1284119,6
2024	6996,2	48947304,2	-1047,6	1097361,0
Jami:	0,0	169311374,2	0,4	41067291,4

Tahlil shuni ko'rsatadiki, parabolik funksiya asosida olingan model barcha mezonlar bo'yicha qo'yilgan talablarga javob beradi, shu sababli bashorat qilish uchun ushbu modelni qabul qilamiz.

Ishlab chiqilgan model mezonlarini hisoblash natijalari

Ishlab chiqilgan modellar	Mezonlar			
	A	σ	ν	R ²
1	2	3	4	5
$\hat{y}_t = 8719,5 + 277,585t$	0,0	4114,7	47,2	0,9488
$\hat{y}_t = 6262,94 + 774,33t + 74,44t^2$	0,4	2026,5	32,4	0,9590

Kvadratlik parabola asosida ishlab chiqilgan modelga ko'ra avtomobil transportida tashilgan konteynerlar soni 2025-2030 yillar uchun bashorat qiymatlari 4-jadvalda keltirilgan.

Konteyner tashish hajmini bashoratlash jadvali

Yillar	Bashorat	Bashorat xatosi	Ishonchlilik intervali	
			yuqorisi	pasti
1	2	3	4	5
2025	21450	0,2078	21450	21450
2026	23788	0,2304	23788	23788
2027	26274	0,2545	26275	26274
2028	28910	0,2800	28910	28909
2029	31694	0,3070	31694	31693
2030	34627	0,3354	34627	34627

Model ma'lumotlarini yaqinlashtirishdagi o'rtacha xato quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$\varepsilon = \frac{1}{n} \sum \frac{y - \hat{y}}{\hat{y}} \cdot 100 = \frac{1}{10} \cdot \frac{87195 - 87194,6}{87194,6} \cdot 100 = 0,00004587 \quad (7)$$

Avtomobil transportida konteyner tashish hajmini o'zgarishini ifodalash modeli eng kichik kvadratlar usuli yordamida ishlab chiqildi va 2025-2030 yillar uchun bashorat qilindi. Bu esa kelgusida O'zbekistonda avtomobil transporti orqali konteyner yetkazib berish sezilarli oshishiga olib keladi hamda kerakli avtomobillar sonini rejalashtirish va bashoratlash imkonini beradi. To'g'ri tanlangan usullar bashorat sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi, chunki ular bashoratning funktsionalligi, ishonchliligi va aniqligini ta'minlaydi, shuningdek vaqtni tejaydi va tashish xarajatlarini kamaytiradi.

Dissertatsiyaning "**Logistika tamoyillari asosida avtomobil transportida konteyner tashish ko'rsatkichlarini tadqiq qilish**" deb nomlangan ikkinchi bobida avtomobil transportlarida konteyner tashishga ta'sir etuvchi omillarning muhimlik darajasini baholash va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash usuli ratsional mezonlarni hisobga olib takomillashtirilgan hamda logistika tamoyillari asosida yuklarni konteynerlarda tashish holati tadqiq qilingan.

Tadqiqotlar asosida konteyner tashuvchi avtomobil transporti harakatini tashkil etishda nomaqbul hodisalarning kelib chiqish sabablari aniqlandi, hamda muammolarni kelib chiqish sabablarini tahlil qilish tartibi ishlab chiqildi. Tashishga

ta'sir etuvchi omillar va umumlashtirilgan toifalar tizimlashtirildi. Bular – texnik, iqtisodiy, texnologik va ekologik omillar hisoblanadi.



5-rasm. Isikava sxemasi asosida ATKT ga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash natijalari

Konteynerlarni avtomobil transportida tashishni tashkil etishdagi muammolarning sabab-oqibatli tahlili empirik tarzda tekshirilishi kerak bo'lgan ehtimoliy sabablar bo'yicha kelishuvni o'rnatish imkonini beradi.

Mavjud adabiyotlarni o'rganish asosida avtomobil transportida konteyner tashish (ATKT)ga tegishli izlanishlar hali ham dolzarbligi aniqlandi. Dissertatsiyada ATKT uchun to'rtta strategik maqsadlarga erishishning ko'p mezonli iyerarxik baholash tizimi ishlab chiqildi (5 – rasimga qarang).

Tadqiqotda avtomobil transportida konteyner tashishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni muhimlik darajalarini baholashda analitik iyerarxik jarayon va Entropiya qiymat usullaridan foydalanildi.

Analitik iyerarxiya jarayoni (AHP) - bu sifat va miqdoriy usullarning kombinatsiyasi. Bu ko'p mezonli va ko'p atributli qarorlar qabul qilishning samarali usulidir. Qaror qabul qiluvchilar ya'ni soha ekspertlari turli ko'rsatkichlarni juftlikda taqqoslashlari belgilandi. Bundan maqsad - ko'rsatkichlarning alternativ funksiyasidagi nisbiy ahamiyatini ochib berish va aniqlashtirish edi. AHP ning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Iyerarxiya modelini tuzish.
2. Taqqoslash matritsasini hisoblash.

Konteyner tashish, ekspluatatsiya tadqiqotlari va hokazolar bo'yicha chuqur nazariy asosga va keng bilimga ega bo'lgan mutaxassislar tanlangan va ulardan maxsus so'rovnoma o'tkazilgan. Shundan so'ng, A juft taqqoslash matritsasi quyidagicha bajariladi:

$$A = [a_{ij}] = \begin{bmatrix} 1 & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ \frac{1}{a_{21}} & 1 & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots \\ \frac{1}{a_{n1}} & \frac{1}{a_{n2}} & \dots & 1 \end{bmatrix}, \quad (8)$$

3. Har bir omilning muhimligini aniqlashda taqqoslash matritsasining xos qiymatlari va xos vektorlarini (8) formula bo'yicha hisoblangan. Agar A mustahkamlik matritsasi sifatida qaralsa (9-formulaga qarang), har bir indikator bilan bog'langan eng katta xos qiymatga (λ_{\max}) mos keladigan xos vektor muhimlik vektoridir (W_{AHP}).

$$AX = \lambda X, \quad (9)$$

4. Taqqoslash matritsasining ishonchliligini tekshirishda esa, taqqoslash matritsasining tasodifiy mustahkamlik nisbati (TMN) qiymati bilan tekshiriladi.

$$TMN = \frac{MI}{TMI}, \quad (10)$$

6-jadval

Birinchi darajali ko'rsatkichlarni taqqoslash matritsasi

Omillar	Texnik	Iqdisodiy	Texnologik	Ekologik	Muhimligi
1	2	3	4	5	6
Texnik	1,00	0,762	0,923	1,393	0,243
Iqdisodiy	1,312	1,00	1,211	1,828	0,319
Texnologik	1,083	0,826	1,00	1,509	0,263
Ekologik	0,718	0,547	0,662	1,00	0,175

(9) va (10) formulalariga ko'ra, maksimal xos qiymat λ_{\max} qiymati 4,002 ga teng bo'lsa, hukm matritsasi MI ning izchillik indeksi 0 ga teng chiqadi. Bu holda, o'rtacha tasodifiy mustahkamlik indeksi – TMI , 0,89 ga teng va tasodifiy mustahkamlik TMN nisbati 0,0031 ga teng bo'ladi, ya'ni taqqoslash matritsasi izchillik talablariga javob berishi uchun 0,1 dan kam hisoblanadi. Muhimlilik vektorini 6-jadvalda ko'rsatilgan

Hisoblash orqali har bir baholash indeksining subyektiv muhimligi natijasi 7-jadvalda ko'rsatilgan.


Yakuniy natijalar 7-jadvalda batafsil aks ettirilgan, shu jumladan har bir ko'rsatkichning muhimlik darajasi qiymatlari keltirilgan. Ushbu daraja ratsional ko'rsatkichlar orasida eng muhimlari transport ta'rifi, tashish masofasi va yetkazib berish vaqti ekanligini ko'rsatadi.

7-jadvaldagi taqqoslash natijalariga ko'ra, 13 ta ko'rsatkichlar orasida yuk tashishning beshta ko'rsatkichlari transport ta'rifi, tashish masofasi, o'z vaqtida yetkazib berish, tashish xavfsizligi, transport tarmog'i zichligi konteyner avtomobil transporti tizimining ishlashini baholashga ta'siri kuchli ekanligi aniqlandi.

Kombinatsiyalangan muhimlikni hisoblash natijasi

Mezon	Ko'rsatkich	W _{AHP}	W _{Entropiya}	W
1	2	3	4	5
Texnik	Marshrut masofasi	0,093	0,076	0,09
	Transport tarmog'i zichligi	0,075	0,098	0,084
	Yagona avtomobil yuk ko'tarish qobiliyati	0,076	0,052	0,066
Iqtisodiy	Konteyner yuki qiymati	0,073	0,047	0,063
	Tashish ta'rifi	0,073	0,122	0,093
	Transpor xarajatlari	0,072	0,057	0,066
Texnologik	O'z vaqtida yetkazish	0,084	0,099	0,089
	Tashish xavfsizligi	0,110	0,049	0,086
	Yuklarni kuzatish	0,033	0,100	0,06
	Xaydovchi malakasi	0,037	0,090	0,058
Ekologik	Karbonat angidrid	0,068	0,076	0,071
	Shovqin	0,034	0,054	0,042
	Yo'l-transport hodisasi	0,073	0,111	0,080


Konteyner tashishda logistika tamoyillarining ilmiy-nazariy yo'nalishi tadqiq etilib, undagi asosiy tamoyillar belgilab olindi. Shu bilan birga, logistika tamoyilining mazmun-mohiyatini yorituvchi elementlar tarkibi aniqlangan (6-rasm).



6-rasm. Logistika tamoyillarining tarkibiy elementlari

Logistika tamoyilining mazmun-mohiyatini yorituvchi elementlarining konteynerlarni avtomobil transporti vositalarida iste'molchilarga yetkazib berish jarayonlarida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan (7-rasm).

Bu masalalarning qo'yilishi, yechish uslublari va ularning qo'llanilishi tadqiqot davomida ko'rsatilgan.



7-rasm. Konteynerlarni iste'molchilarga yetkazib berishda logistika tamoyili elementlarining qo'llanilishi

Konteyner tashish jarayonlarini rivojlantirishning logistika tamoyillari muayyan hudud yoki tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beruvchi yangi boshqaruv tizimini ifoda etadi. Bunday yondashuv, transport vositalaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, konteyner tashishni rivojlantirishga hamda terminallarda xizmat ko'rsatish, avtomobillarda yuksiz qatnov masofalarini kamaytirish orqali ratsional ko'rsatkichlarini oshirishga olib keladi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobida "Avtomobil transportida konteyner tashish tarmog'ini optimallashtirish yo'nalishlari" deb nomlanib, unda logistika tamoyillari asosida avtomobil transportida konteyner tashishni marshrutlashtirish masalasini qo'yilishi va yuksiz qatnov masofalarini qisqartirish sharti asosida matematik model takomillashtirilgan hamda konteyner tashish marshrutlari ishlab chiqilgan.

Transport marshrutlashtirish masalasini qo'yilishi ish unumdorligi yuqori bo'lgan xususiy transport terminallari ya'ni "Azia Trans Terminal" MCHJ (A1), "Orient logistics center" MCHJ (A2), "Universal logistics service" MCHJ (A3), "Fright dry port terminal" MCHJ (A4) va Texno Park" MCHJ (A5) lar konteynerli jo'natish punkti va "GM Powertrain" (B1), "NEWPORT" (B2), "Erkin Savdo majmuasi" (B3), "Akfa Build" MChJ (B4), "Bekto'pi Stroy Market" (B5) va "Uzum Market Ombori" MChJ (B6) lar konteyner qabul qilish punktlari deb tanlab olindi. Shu bilan birga, konteynerli yuklarni shahar bo'ylab turli manzillarga yoki viloyat markazlariga yetkazib berishga ixtisoslashgan avtomobil transport korxonalarini (ATK) "BK Intrans" XK va "O'ztemiryo'lkonteyner" AJ larning tashish jarayonlari tadqiq qilindi.

Konteyner tashish talabnomasi 8-jadvalda keltirilgan. Ushbu talabnoma ma'lumotlari bo'yicha jo'natish va qabul qilish punktlarida tashilgan konteynerlar soni va jo'natish punktlaridan va iste'mol punktlari orasidagi masofalar keltirilgan.

8 - jadval

Konteyner tashish talabnomasi

Konteyner jo'natuvchi punktlar	Belgisi	Konteyner qabul qiluvchi punktlar	Belgisi	Konteyner (TEU) va ATV soni	Tashish masofasi, km
1	2	3	4	5	6
"Azia Trans Terminali" MCHJ	A1	NEWPORT	B2	14/10	3,3
Orient logistics center MCHJ	A2			8/8	4,4
		Bekto'pi stroy market	B5	4/4	17,3
		Uzum market ombori	B6	22/22	9,9
Sergeli "FIRST DRY PORT TERMINAL" MCHJ	A3	GM Powertrain	B1	32/24	6,9
ULS – Universal logistik servis – Chuqursoy, MCHJ	A4	Erkin savdo majmuasi	B3	21/21	21,5
		Bekto'pi stroy market	B5	15/15	18,7
Texno Park MCHJ	A5			1/1	19,5
		Akfa Build	B4	15/8	3,8

Logistika ta'minot zanjirida konteyner tashish jarayonining umumiy transport marshrutlashtirish modeli minimum yoki transport ishi eng qisqa bo'lishi kerak:

$$P_k = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n l_{ij} z_{ij} + \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n l_{ji} z_{ji} \rightarrow \min, \quad (11)$$

konteynersiz yurishda yo'qotilayotgan konteyner kilometrdagi transport ishi hajmini o'rtacha 1 ta konteyner ko'taruvchanlikka to'g'ri keladigan miqdori:

$$L_{k.siz} = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n \frac{c_{ji} z_{ji}}{q_n \gamma_c} = \frac{1}{q_n c_{ji} z_{ji}} \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ji} z_{ji} \rightarrow \min, \quad (12)$$

Umumiy tashish xarajatlari eng qisqa bo'lish sharti:

$$C_{xar.} = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n x_{ij} \cdot c_{ij} \rightarrow \min \quad (13)$$

Bundan tashqari jo'natish punktlaridan tashib chiqilgan va qabul qilish punktlardan olib kiriladigan konteynerlar soni o'zaro teng bo'ladi, ya'ni

$$\sum_{i=1}^m \alpha_i = \sum_{j=1}^n b_j \quad (14)$$

$$\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n (l_{ij} + l_{ji}) \rightarrow \min \quad (15)$$

Konteynerli va konteynersiz qatnovlar soni yoki bu qatnovlarda tashiladigan tonnalar soni ham o'zaro tengdir:

$$\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n z_{ij} = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n z_{ji} \quad (16)$$

Bunda: z_{ij} - konteyner oqimini xarakterlovchi ko'rsatkich, ij – transport tarmog'i;

z_{ji} - esa j va i punktlari orasida bajariladigan konteynersiz avtotonnalar yoki qatnovlar soni.

